XALQ DEPUTATLARI ZOMIN TUMANI KENGASHI QARORI

2023 - yil 16 - noyabr VI-52-127-3-48-K/23 Zomin tumani hokimligi

Tuman mahalliy byudjetining xarajatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksi, O‘zbekistonning 2022-yil 30-dekabrdagi“ 2023 yil uchun O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-813-sonli Qonuni ijrosini ta’minlash, budjet jarayonida budjet mablag‘laridan oqilona va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq foydalanish, shuningdek xarajatlar samaradorligini oshirish maqsadida xalq deputatlari Zomin tumani Kengashi:

QAROR QILADI

1. Xalq deputatlari tuman Kengashining 2022-yil 31-dekabrdagi “Zomin tumanning 2023-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida”gi VI-44-214-3-48-K/22-sonli qarori doirasida budjetdan ajratilgan mablag‘larga 2023-yil 1-2-chorakda kiritilgan o‘zgartirishlar ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin, 2023-yil 3- va 4-choraklarda ko‘paytirish yoki kamaytirishni nazarda tutuvchi barcha kiritiladigan o‘zgarishlarni tegishli tartibda amalga oshirish vazifasi tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov)ga yuklatilsin.

2. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (D.Mamatqulov) tuman mahalliy budjetining tasdiqlangan parametrlari doirasida budjetdan ajratilgan mablag‘larni ko‘paytirish yoki kamaytirishni nazarda tutuvchi barcha kiritiladigan o‘zgartirishlar ijro jarayonida oyma-oy balanslashgan holda, qonunchilik hujjatlari asosida amalga oshirilsin.

3. Har bir kiritilgan o‘zgartirishlar hisobotini xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasiga har chorak yakuni bo‘yicha hisobot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman

Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari Z.Omonqulov zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Abdug'aniyev**